

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan


2006-yil 14 - 20 - avgust N:33 (66574)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xavriya jamo'armasi.


SAHIFALARDA

BOLALARNING HAMROHI KITOB



3-BETDA

YASHASIN TA'TIL!



3-BETDA

NASIHATGO'Y QO'Y



6-BETDA

Ezgulik arkasi vatandoshlarimiz uchun aziz va muqaddas timsolga aylanishiga ishonaman. Zero, har bir qalb ezgulikka intilib yashaydi. Dunyoda yaxshi niyat, orzu-istaksiz odamning o'zi yo'q. Istardimki, shu darvoza ostonasidan o'tadigan har bir yurtdoshimizning qalbi shukronalik, ertangi kunga ishonch tuyg'ulari bilan to'lsin.

Islom KARIMOV.

Mustaqillik maydoni. Istiqloлга erishgan O'zbekistonning bosh maydoni, yuragi, qalbi. Maydonga har tong baland tog'lar osha ilk zarrin nurlarini sochadigan Quyoshga peshvoz Ezgulik arkasi orqali kiriladi. Ark tepasidagi turnalar shodlikdan, hurlikdan qanot qoqib, sizni kutib olayotgandek. Turnalar tinchlik, birlik, jipslik timsoli. Bu ramziy timsol - mamlakat, el-yurt tinch - osoyishta yashayotganligini anglatadi. Ular baland-balandliklardan parvoz qilib, har yil bahorda o'lkamizga ko'klam tarovatini, yaxshi niyat nafasini olib keladilar. Turnalar ozod yurtda, farovon go'shalarda qo'nim topadilar, yayrab yashaydilar.

Ezgulik arkasi - uzunligi 150 metr, o'rta peshtoq qismi o'n ikki metr balandlikka ega, o'n oltita qator oq marmar bilan bezatilgan ustunlardan iborat muazzam me'moriy majmua.

Ezgulik arkasi yuqori qismidagi mo'jaz Yer shari uzra charx urayotgan turnalar yurtboshimiz aytganlaridek, inshoolloh sharafli ishlarimizga yor bo'lgay, el-u yurtimizga fayz-farog'at keltirgay.

Ezgulik arkasi ostonasidan to Mustaqillik monumentiga qadar ikki yoni qizil ma'dan tosh koshindan, o'rtasi uzun oq poyonoz yo'lakdan maydon markazidagi istiqloл sharafiga o'rnatilgan yodgorlik poyidagi Vatanimiz, mustaqil ona diyorumiz ramzi - onabola siymosi aks ettirilgan haykal tomon boriladi. Mustaqillik monumenti baxtiyor ona va bola qiyofasi bilan yanada ham mazmunan, ham mohiyatan mukammal qiyofaga kirdi.

O'zbekiston Prezidentining 2006-yil 3-fevraldagi qarorida ta'kidlanganidek: «Mustaqillik maydonining ijtimoiy- siyosiy hayotimizda tutgan muhim o'rni va ahamiyatini inobatga olib hamda xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga istiqloл

g'oyalarini, milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada chuqurroq singdirish maqsadida Mustaqillik maydonida bunyod etilgan, o'zida Mustaqillik haykali va Baxtiyor ona siymosini mujassam etgan majmuaga «Mustaqillik va ezgulik monumenti», deb nom berildi.

Endilikda «Mustaqillik va ezgulik monumenti» poyi hamisha gulchambarlar bilan to'la. Bu yerga har kuni yuzlab, minglab yurtdoshlarimiz, yoshlar, chet ellik mehmonlar, davlat va jamoat arboblari tashrif buyurmoqdalar. Ular «Xotira maydoni»ga o'tib, Motamsaro ona haykalini ziyorat qilib, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlarni esga olmoqdalar. Mustaqillik maydoni har

birimiz uchun muqaddas qadamjo, Vatanimizning ulug' bir go'shisi bo'lib qoldi. Bu yerdan qudratli mamlakatimizning porloq kelajagini, yoshlarimizning nurafshon hayotini his etib turibmiz.

Vatanimizning bosh maydonini sayr qilib qaytar ekansiz, qalbingizni bir olam g'urur, faxrlanish tuyg'usi qamrab olganini sezmay qolasiz. Bir tomonda, Oliy Majlisning yuqori palatasi Senatning muazzam koshonasi, ro'parada ijro hukumatimiz Vazirlar mahkamasining ma'muriy binosi. Jajji-jajji bolakaylarni ham, o'g'il-qizlarni ham, nuroniy insonlarni ham birdek to'lqinlantirgan timsollar butun vujudingizda mangu o'rnatilgan qoladi. Hassos shoirimiz Sirojiddin Sayyid yozganidek:

Maydon maftun etdi ko'plarni g'oyat,
Bu joyda aytildi qancha rivoyat.
Bir kun ona- bola kirib keldi-yu,
Maydon egasini topdi nihoyat.

Jabbor RAZZOQOV.

Mening qishlog'im... Bolaligimning eng zo'r, zavqli, quvonchli damlari o'tgan, endilikda o'sha, bir ko'cha bolalarning qiy-chuvi, to'polonlarini sog'inib qolgan tuproqli ko'chalar... Hamon o'sha joylarni ko'z oldimga keltirsam, yuragim xapriqib ketadi. Loydan uy yasab, koptokda tosh qulatish o'ynagan jingalak sochli bolalar-u, chaqmoqtosh o'ynagan jamalak sochli qizlar endi kap-katta yigit-qizlarga aylandik. O'sha vaqtlardagi beg'ubor, totli damlarga oshno bo'lgan qishlog'imiz bizlarni navbatma-navbat jimgina kuzatib qoldi. Toshkentning sershovqin, odamlarga to'la ko'chalariga kelib, bir zum o'ylanib qoldim. Qishlog'imning tinch, osuda yo'llarini, sodda odamlarini bir zumda sog'indim. O'qish boshlanib, kitob o'qishga, ketma-ket kelayotgan imtihonlarga tayyorgarlik ko'rib, hatto bu hayotga singib ham ketdik. Ammo ba'zida tushlarimga kiradigan o'sha chang ko'chalarni sog'inaman. Tor yo'llardan qoqila-suqila

chopayotgan bolaligimni qo'msayman. Eshik kesakisiga suyalib meni, «Oy borib, omon qayt», deya duo qilayotgan onamni ko'rgim kelib, o'g'il bola bo'lsam-da, ko'zlarimdan yosh tirqiraydi. Ertaga, ertaga boraman, onajon, deyman ichimda, lekin qayoqda? Tuni bilan xotiralar bilan olishib, tong otganini ham sezmay qolaman. Tashqarida gumburlab o'tgan tramvay shovqinidan uyg'onib, men ham tezda ana shu shovqinga sho'ng'ib ketaman. Meni esa qishlog'im, ota - onam kutayotgani yana yodimdan ko'tariladi. Har kuni shu alfozda kech tushadi. Meni kutayotgan chang ko'chalar-u, xo'rsinib-xo'rsinib kutayotgan aziz qishlog'im, yana ozgina qoldi. Ertagayoq hamma ishlarimni tashlab boraman. Ertaga...

Sunnatbek IKROMOV,
Toshkent viloyati, Parkent
tumanidagi 7-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.




ONALAR YOZADI

Assalomu alaykum, hurmatli tahririyat xodimlari! Men Sayohat Aslonova sizlarga qizim haqida yozmoqchiman. U bo'sh vaqtlarida she'rlar, hikoyalar yozadi, rasmlar chizadi. Har xil kiyimchalar tikadi. Uning she'rlaridan ba'zilarini sizlarga yuboryapman. Kamchiliklari bo'lsa tuzatib chop etasiz, degan umiddaman. Men Buxoro viloyatining Qorovulbozor shahrida yashayman. Qizim hozir singlisi bilan qishloqda yana she'rlar yozish bilan band. U sinfida a'lochi, juda ham faol. Tanlovlarda qo'shiq aytib, chiroyli raqsga tushadi. Rollarni ajoyib ijro etadi.

JARANGLA, QO'NG'IROG'IM!

Jarangla, qo'ng'irog'im,
Titrasin maktab bog'im.
Ilmlarning yo'lin och,
Har bir qalbga ziyo soch.
Porloq et yo'llarimiz,
Titratsak qo'llarimiz.
Jajji murg'ak qizingman,
So'zamol yulduzingman.
Sevaman Vatanimni,
Sarflab jon-u tanimni.
Jarangla, qo'ng'irog'im,
Jarangla, qo'ng'irog'im.



HAYKALTAROSH

Men yoshligimdan haykaltaroshlikka qiziqaman. Yana yangi g'oyalarni o'ylab topaman. Loy bilan mashq qilib, qo'li yaxshi rivojlanmagan bolalarni muolaja qilishga, loyga dorivor o'simliklarni qo'shib, ba'zi dardlarni davolashga harakat qilaman. Chunki loy bilan ishlagan insonning ruhi dam oladi, asablari tinchlanadi.



2001-yil mart oyida bo'lib o'tgan «Iqtidorli bolalar-2001» ko'rik-tanlovida 2-o'rinni oldim. 2004-yil aprel oyida o'tkazilgan «Navro'z» mehramuruvvat va yosharish bahor bayramida 1-

o'rinni egalladim. Keyingi «Yosh ustalar» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni olib, Respublika bosqichiga yo'llanma oldim. Men «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakatining maktab sardoriman. Iqtidorli maktabdoshlarim bilan to'garaklarga a'zo bo'lib, «O'zbek ayoli», «Kurash», «Ohang», «Tinchlik guli», «O'zbekiston sporti» deb nomlangan asarlarim bilan turli tanlovlarda ishtirok etyapman. Mening bunday yutuqlarimdan avvalo ota-onam, ustozlarim xursand bo'lishib: «Bular Istiqolimizning sharofatidan. Mustaqillikdan avval loaqal tumanga ham chiqish ming muammo bo'lardi. Sizlarning baxtingiz bor ekan. Istiqololing iqboling ekanligini unutmang, uning qadriga yet», deyishadi.

Gulhayo ATASHEVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
13-maktabning 11-sinf o'quvchisi.

Malika odobli qiz. Barcha fanlardan yaxshi o'qiydi. Sinfda do'stlari ko'p. Lekin uning eng yaqin dugonasi Guljahon. Malika unga doim yordamlashadi. Darslardan tushunmagan joyini tushuntiradi. Ularning do'stligiga Malikaning yonida o'tiradigan Aynura juda havas qiladi.

Kunlardan bir kun ularning sinfiga Gulchehra ismli qiz keldi. Negadir ko'p o'tmay Guljahon Gulchehra bilan do'stlashib ketdi. Dugonasi Malika bilan gaplashmay ham, salomlashmay ham qo'ydi.

Malika undan qattiq xafa bo'ldi. U ikki kungacha o'qishga kelmadi. Aynura Malikadan xabar olish uchun o'qishdan so'ng uning uyiga bordi. Borsa, u betob bo'lib yotgan ekan. Malika Aynurani ko'rib xursand bo'ldi. Aynura unga o'tgan darslarning hammasini tushuntirdi.

Ertasiga Malika o'qishga bordi. Oradan ikki oy vaqt o'tdi. Malika bilan Aynura chin do'st bo'lib qoldi. Goho Guljahon ikkisining do'stligini ko'rib, ichida qattiq hasad qilar edi. Lekin Gulchehraning oilasi boy bo'lgani sababli u bilan do'st bo'lganiga o'zicha xursand bo'lardi. Kutilmaganda Gulchehraning otasining ish joyi o'zgarib, ular yana boshqa joyga ko'chib ketishdi. Guljahon sinfda yolg'iz qolgan edi. Hech kim

uning holidan xabar olmasdi.

Bir kuni u Malikaga:

–Do'stim, meni kechir, - dedi yerga qarab. Shu payt uning ko'zlariga beixtiyor yosh keldi va dugonasini quchib olganini o'zi ham sezmay qoldi.

Shunday qilib, ular yana do'stlashib ketishdi. Endi Aynura, Malika, Guljahon uchchalasi do'st bo'ldi.

Fariza AVEZOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Nukus shahridagi 37-son maxsus
maktabining 6-sinf o'quvchisi.

TOSHIM SUVGA TUSHMADI

Salom aziz tengdoshlarim! Yozni maroqli o'tkazyapsizlarmi? Men ham miriqib dam olyapman. Yaqinda oilamiz bilan «Ugam» dam olish maskanida bo'lib qaytdik. U yerdan olgan taassurotlarimni sizlar bilan o'rtoqlashgim keldi. Tog'lar bilan o'ralgan bu oromgohdan Ugam daryosi oqib o'tarkan. Tog'dagi qorlardan oqib tushgani uchun uning suvi nihoyatda sovuq ekan. Shunday bo'lsa-da, mazza qilib cho'mildik. Suvning o'rtasidagi kattakon tosh ustida rasmga tushdik. Dam oluvchilarga qo'shib qo'shiq aytdik, raqsga tushdik. Uyga qaytayotganimizda yuqoridan «Chorbog'» suviga tosh otdik. Dadamning aytishlaricha, bu daryoga hali hech kim yuqoridan tosh otib tushira olmagan ekan.

Durdonabegim QODIROVA,
Toshkentdagi 129-maktabning
9-sinf o'quvchisi.



lanayaptilar. Shuni quvonch bilan aytamizki, maydonchada har kuni sport o'yinlaridan tashqari «Bioekosan» majmuasi qoshida tashkil etilgan yosh tabiatshunoslar to'garagi ish olib bormoqda. Mahalla bolalarining bo'sh vaqtlari unumli o'tayotganligidan ota-onalar shod. Yaqinda sport maydonchasining a'zolari birgalikda poytaxtimizdagi hayvonot bog'iga sayohatga borishdi. «Qaldirg'och»dagi hordiq ta'vil tugay deyishiga qaramay hamon o'zaro bellashuvlar bilan qizg'in.

Tuhfaniso ORTIQOVA.

FOYDALI MASHG'ULOT

O'ylab qaragam, yozgi ta'vil ham oxirlab boryapti. Faqat bir nechtagina badiiy kitob o'qish-u, uy yumushlariga qarashish bilan o'tibdi.

Bir kuni uyimizga mehmonlar kelishdi. Ularning ichida mening tengdoshim, ammamning o'g'li ham bor edi. Ikkalamiz o'ynab o'tirib, bir-birimizga matematikaga oid savollar bera boshladik. Savol-javoblarimiz juda qizib ketdi. Bizni buvim kuzatib turgan ekanlar.

–Voy bolalarim-ey, hisobni ancha tushunib qolibsizlar-ku. Sizlarni To'lqinboyga olib borsam bo'lar ekan, a?-dedilar buvim.

–Kim u To'lqinboy?-dedik baravariga shoshib.

U mening sevimli jiyanim. Matematik. Juda bilimdon bola-da. Hurmatli odam. Qaysi kuni ularnikiga borgandim. To'garak ochganini eshitib qoldim. Siz ham to'garakka borsangiz, ancha-muncha narsani bilib olasiz.

Biz buvijonimizni quchoqlab oldik. Chunki ta'vilimizning qolgan kunlari maroqli o'tadigan bo'ldi. Vaqtimiz bekor o'tmaydigan bo'ldi. Matematikadan ancha narsani bilib oladigan bo'ldik.

Yusufbek OZODBEKOV,
Andijon tumani, 42-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.

Nosir FOZILOV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, bolalar yozuvchisi: – Mustaqillik bizga erkinlikni hadya qildi. Busiz baxt-saodat bo'lishi mumkin emas. Endilikda nashriyatimizda bolalarga atab ikkita she'riy antologiya (har biri 30 hajmda) tayyor ekanligini ko'rib, ko'zlarimga ishonmadim. Chunki bozor iqtisodiyoti davrida bunday zalvorli kitob chop etishning o'zi bo'lmaydi. Bu imkoniyatni bolalarga, shubhasiz, istiqloq berdi. Antologiyaning ikkinchi proza qismi ham tayyorlanish arafasida. Yildan-yilga nashriyotlarning ahvoli yaxshilanib borayapti. Bular orasida «Sharq» nashriyoti bayroqdordir. Har bir bolalar yozuvchilarining kitoblari alohida-alohida chop etilayapti. Jumladan, mening ham bolalar uchun yozgan «Saron» nomli qissa va to'plamim nashrdan chiqdi. «Cho'lpon» nashriyotida esa «Shum bolaning nabiralari», «Ma'naviyat» nashriyotida «Tushovli toy» nomli kitobim bosilish arafasida turibdi. Biz kitob yozaveramiz. Ularni bolajonlarimiz bag'riga bosib o'qiganini ko'rsak, quvonaveramiz.

Erkin MALIKOV, «Sharq» nashriyoti xodimi: – Nashriyotimizda bolalar va o'smirlar uchun yaqin kunlarda 12ta roman, qissa, she'riy kitoblar chop etdik. Ular «Saron», Xurshid xonim» qissasi, tobsevar oftobmovaning «Shibarning «Uyqu-Bulardan tarjima asarlari qillikka bag'ish-epepeyasini Yangi kitoblar savmarqand, Andijon, va Farg'ona kabi poytaxtimizning barcha kitob do'konlarida sotilishi tashkillashtirilgan. Ayni kunlarda 1 milliard so'mdan ziyod bolalar va kattalar badiiy adabiyotlari sotilyapti. 15 yil ichida 300 nomdan ko'proq kattalar adabiyoti, 200 nomga yaqin bolalar uchun kitoblar chop etildi.

Maqsadimiz, har bir yangi kitob bilan bola tanishsin.



BOLALARNING HAMROHI - KITOB

Tafakkurga fikr orqali, qalbga-qalb orqali, bilimga esa, shubhasiz, kitob orqali kirib boramiz.

Mustaqilligimizning 15 yilligi nishonlanadigan shu kunlarda bolalar uchun qayg'uruvchi ijodkorlar nima bilan band? Buni siz taniqli yozuvchi va shoirlar bilan qilgan suhbatimizdan bilib olasiz.

Shoyim BO'TAYEV, «Cho'lpon» nashriyoti badiiy adabiyotlar bo'limi mudiri: – Nashriyotimizda Mustaqilligimizning 15 yilligini munosib kutib olish har yildan ko'ra xayrliroq ishlar bo'lyapti. Bularning eng kattasi – O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasini chop etilayotganligidir. Antologiyaning birinchi qismi, ya'ni, she'riy bo'limi «O'qituvchi»da bosilgan bo'lsa, 2-proza qismi «Cho'lpon» nashriyotida chop etilmoqda.

Ushbu antologiyadan G.Gulom, H.Nazir, X.To'xtaboyev, N.Fozilov, F.Musajon kabi yozuvchilar asarlari o'rin olgan. Kelgusi rejada Ingliz adibasi Uaydaning «Nellova Patraj» hikoyasi, Ilhom Zoirning «Sichqoncha Tabuning sarguzashtlari» asarlari bosmadan chiqish arafasida.



Safo MATJON, Zomin Pedagogika Universiteti professori, Pedagogika fanlari doktori: – Mustaqillik o'zligimizni anglashga imkon berdi. Undan faqat bir narsa kutish emas, balki o'zimizning unga tayyorligimizni, munosabatimizni tanqidiy ruhda ko'zdan kechirishimizni taqozo etadi.

Birgina misol, bolalar adabiyotining targ'iboti televideniye, radio va matbuotda keng yoritilmoqda. Ammo ularning joylarga yetib borishi, chekka qishloqlarda kitob savdosi masalalari talab darajasida emas. Mavjud kitob do'konlari o'rniga boshqa savdo shahobchalari faoliyat ko'rsatmoqda. Kelajagimiz ma'naviyatimiz targ'ibotiga bog'liq ekan, bu mavzuni eng muhim o'ringa qo'yish lozim. Faqatgina kitob targ'iboti bilan cheklanib qolmasdan, uning natijasiga ham razm solishimiz darkor. Joylarda yozuvchilar bilan muntazam ravishda uchrashuvlar tashkil etib borishimiz zarur. Uchrashuv bo'lganda ham bir-ikkita emas, ko'plab uchrashuvlar bugun xalqimizga juda kerak.

Bebaho xazina

Nosir Fozilovning Davronning «Bibi-Qambar Otaning «Kioy», Umida Abduazirintoy», Adham Akchining tushlari» tashqari, bir qancha ham bor. Mustalab «Go'ro'g'li» tayyorlayapmiz. dosi hozirda Sabuxoro, Namangan qator viloyatlarimizda hamda barcha kitob do'konlarida sotilishi tashkillashtirilgan. Ayni kunlarda 1 milliard so'mdan ziyod bolalar va kattalar badiiy adabiyotlari sotilyapti. 15 yil ichida 300 nomdan ko'proq kattalar adabiyoti, 200 nomga yaqin bolalar uchun kitoblar chop etildi.



Qambar OTA, bolalar shoiri: – Maktab darsliklari sahifalaridan o'rin olgan ko'pgina she'rlarim bolajonlarimizga yod bo'lib ketganligidan quvonaman. O'zim ham 6-sinf dan boshlab she'rlar yozganman. Birinchi she'rim «Ona Vatan» nomi bilan Kattaqo'rg'on tuman gazetasida chop etilgandi. Mana endi ming shukurki, biz ham istiqloq ne'matlaridan bahramand bo'lib turibmiz. «Ishpolvon va toshpolvon», «Quyosh bilan gaplashdim» kabi bir qator ertak va dostonlarim kiritilgan to'plamlarim chop etildi. Kitoblarimizni bolajonlar sevib o'qisalar, biz yana ilhomlanamiz. Shu yurtning beqiyos imkoniyatlaridan rohat olamiz. Bolalarga esa doimo kitob hamrohingiz bo'lsin, deymiz.

Kitob – insonni tafakkurga, nurga eltuvchi eng sodiq do'st hisoblanadi. Kitob o'qigan insonning aqli teran, so'z boyligi ham ko'p bo'ladi. Buni yaxshi bilgan Yangiyo'l tumanidagi 4-umumta'lim maktabi o'quvchilari ta'til kunlarida ham maktab kutubxonasidan beri kelgilari kelmayapti. Maktab kutubxonachisi Gulchehra opa Kenjaboyeva boshchiligida maktabda «Kitobxonlik bayrami» uyushtirildi. Ularga 6-sinf rahbari Tursunoy opa Ahmedova, 7-sinf rahbari Jumagul opa Biyjanova yaqindan yordam berishdi. Tadbirida o'quvchilardan Ulug'bek Karimboyev, Asqar Ibragimov, Umida Pardaboyeva, Jadra Julayeva, Jaynar Usmanova, Jasur Imomqulov faol qatnashishdi. Ular darsliklardan berilgan badiiy asarlardan tashqari, el tanigan yozuvchilardan O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Abdulla Qahhor, Tohir Malik, shoir Muhammad Yusuf, Anvar Obidjon, shoirlar Umida Abduazimova, Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridan o'qib, yig'ilganlarga yaxshi kayfiyat ulashishdi. Qishloqdagi iqtidorli o'quvchilardan Abdusamad Mahammadov, Zulayho Muhitdinovalar o'z ijod namunalariidan o'qib berishdi.

Shuningdek, 4-5-sinf o'quvchilari orasida ham «Kitobim – oftobim», «Kitob bizning do'stimiz» deb

nomlangan tadbir uyushtirildi. Bu tadbirga ham sinf rahbarlari Gulchehra Naliboyeva hamda Dilfuza Abduraimova bilan birgalikda maktab kutubxonachisi Gulchehra opa Kenjaboyeva boshchilik qildilar. O'quvchilarni badiiy asarlar, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari yordamida og'zaki nutqlarini rivojlantirish maqsadida o'tkazilgan bu tadbirida

rivoyatlar, afsonalar o'qildi, «To'maris» afsonasidan lavhalar ijro etildi. Shuningdek, tadbirida «Eng bilag'on o'quvchi» musobaqasi tashkil etilib, bunda asarlardan parcha aytish, uni muallifini topish orqali bolalar bilimlarini sinab ko'rdilar. Tadbirida Zafar Diyorning «Kitob – mening do'stim», Po'lat Mo'minning «Kitob mening qo'limda», Quddus Muhammadiyning «O'quvchiga esdalik» singari she'rlaridan o'qildi. Ta'til kunlarini rejali o'tkazishda, ularni bilimli, ma'naviyati boy inson bo'lib yetishishlarida o'z xizmatlarini ayamayotgan 4-umumta'lim maktabining kutubxonachisi Gulchehra opa Kenjaboyevaning o'rinlari beqiyos. Ular yana ta'til kunlari mobaynida bolalarni zerikib qolishlariga yo'l qo'ymaslik uchun tinmay izlanayaptilar.

–Endi, –deydilar ular kuyunchaklik bilan, – kutubxona a'zolari o'rtasida «Men sevgan qahramon» mavzusida davra suhbat o'tkazmoqchiman. Bu harakatlarim bolalarning bilimli bo'lishlarida ozgina ahamiyatga ega bo'lsa, boshim ko'kka yetardi.

Biz ham Gulchehra opa Kenjaboyevadek o'z kasbini sevuvchi, kitob olamiga bolalarni yetaklovchi insonlar borligidan quvonib, ularni kelajakdagi rejalarini muvaffaqiyatli amalga oshishiga tilakdoshmiz.

Muhayyo TO'LAGANOVA.



Ushbu she'rlar O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi ko'magi bilan chop etilmoqda.

YAXSHILARNING XISLATI

Kimki bo'lsa mard, jasur,
Yuragi to'la g'urur.
Irodali va mag'rur -
Tangri unga yor bo'lur.

Yaxshilikdan tonmasa,
Boylik deya yonmasa.
Yomon yo'ldan bormasa -
Pirlar madadkor bo'lur.

Halol bo'lsa mehnati
Odob bo'lsa ziyati
Ezgu bo'lsa niyati -
Dushmanlari xor bo'lur.



Tinmasa ilm izlab,
Muruvvat yo'lin ko'zlab.
Hunar o'rgansa yuzlab -
Doim zafar yor bo'lur.

Yashasa adolat deb,
Nohaqlikning boshin yeb.
Yig'masa faqat zar, zeb -
Qishlari bahor bo'lur.

Bir burda nonini ham,
Ko'rsa el bilan baham.
Ollah ko'rsatib karam -
Mushkullar oson bo'lur.

Shahnoza QODIROVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 48 - maktab
o'quvchisi.

OZODLIK ARKASI

Mustaqillik maydonida qaddin rostladi,
Ezgulik yodgorligi - «Baxtiyor ona».
Tinchlikning timsoli - oq turnalar-u,
«Qur-qur»lab laylaklar unga parvona.
Farzandiga mehr-la boqqan onaning,
Mamnun chehrasiga havas-la boqdim.
Uning nur yog'ilgan nigohlaridan,
Baxt va shukronalik ma'nosin uqdim.
Deydilar, laylak tinch, osuda joyda,
Bir oyoqda turar xotirjam bo'lib.
Arkda esa laylak hamda turnalar,
Tinchlik timsolidek turar joy olib.
Xalqimizning aziz ziyoratgohi,
O'zingsan yurtimning go'zal markazi.
Kelajak orzusini ko'rsata olgan,
Vatanning ozodlik, mangu arkasi.



Dilrabo DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.

SOG'INCH

Tashlab kelgan ona qishlog'im
Seni juda sog'inib ketdim
Qadam bosgan aziz tuprog'im
Qadrin endi tushunib yetdim

Adir osha yugurganlarim,
Kulimsirab hamon qo'masayman
Senda kechgan har bir kullayim
Qalb tubida doim asrayman.

Qirlaringda lolaqizg'aldoq,
Alvon gilamlarin yoygandir.
Yomg'irlarda bo'lib qosh, baldoq,
Tomchilarga yuzin chaygandir.



Bahordagi go'zal husningni,
Jamolingni bir ko'rgim kelar.
Maysalaring terib, ko'ksingga,
Bir damgina bosh qo'ygim kelar.

Daraxtlaring nafis gullarga,
Burkanganin dildan tuyaman.
Qishlog'im, sen joson dillarga,
Ishon, seni jondan sevaman.

Nodira SHUKUROVA,
poytaxtdagi 226 - maktabning
7-«A» sinf o'quvchisi.

OLOTIMNI SOG'INDIM

Olotni sog'indim, uyni jonajon,
Paxtalar bo'y cho'zib qolgandir biroz?
Dalalarni sog'indim, undagi hatto,
Yantoqni ko'rishga bo'ldim ishqiboz.
Qaniydi bir borsam, Olot yerining,
Sho'ri peshonamga qo'nsa ham mayli.
Ketmon chopib tolman bobom terining,
Hidi dimog'imga ursa ham mayli.
Hali maktab nurab to'kilmadimi,
Qaniydi bo'yini ko'rsaydim bir bor.
Hamon yerga sholi ekilmadimi,
Dugonam, shu haqda xat yozib yubor.
Qishloq tinchmi o'zi, omonmi hamma?
Tunov kun tushimga kirdi ariqlar.
Faqat ishlar chatoq, yomonmiz, dema,
Omonmi tengdoshlar, «odam baliqlar?»
Qishloqda to'y, chorlar, beshik to'y ko'pdir,
Eh, afsus, baridan bo'ldim benasib.
Onamga aytib qo'y, sog'man, omonman,
Shoira bo'lurman yurtga munosib.

Lobar BEKKIYEVA,
Buxoro viloyati, Olot tumani,
Chandir qishlog'i.

O'ZBEGIMNING QIZLARI

To'lin oydek yuzlari,
Shahlo-shahlo ko'zlari.
Mehnatsevar o'zlari,
O'zbekimning qizlari.
San'atni xo'p sevarlar,
Ba'zilar chevarlar.
Zo'r pazandalar ular,
O'zbekimning qizlari.
So'zlaridan tomar bol,
Sen ulardan ibrat ol.
Ko'rganlarni qilar lol,
O'zbekimning qizlari.
Egnida shoyi atlas,
Boshlarida zar do'ppi.
Ko'rib qilgaysiz havas,
O'zbekimning qizlari.



Shahnoza G'ANIYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa
tumanidagi 116 - maktabning
5-sinf o'quvchisi.

QAYSI MENING YULDUZIM?..

Osmon to'la yorqin yulduzlar,
Termuladi bu tiyrak ko'zlar.
Ta'rifiqa ojiz dil so'zlar,
Qaysi mening yulduzim ekan?

Balki budir mening yulduzim,
Yo unisi yoki bunisi.
U-chi, kimning yulduzi ekan,
Har bir inson shunday der ekan.
Eh, qaysi mening yulduzim ekan?



Gulshoda ALIMOVA,
Andijon viloyati, Ulug'nor
tumanidagi 4-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi.

SINFDOH QIZLAR

Sinfimizdagi qizlar,
Inoq, ahil, do'st bizlar.
Xoh katta-yu kichikni,
Ular birday «siz-siz»lar.

Dugonalar sho'x bari,
Intilar bilim sari.
Biri bo'lar bichuvchi,
Men bo'laman tikuvchi.

Orzularimiz daryo,
Qo'shiling safimizga.
O'qiymiz doim a'lo,
Tole hamrohdir bizga.



Nazifa SUYUNOVA,
Samarqand viloyati, Jomboy tumani,
No'sh qishlog'idagi
8 - o'rta maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi.

Assalomu alaykum, buvijon!

Elektron pochtdan yuborgan maktubingizni oldim. Kompyuterda hammamizning o'z «emel»imiz bor. Maktubni aynan menga yuborganingizdan xursand bo'ldim. Singlim va ukamga o'qib bergandim, ular ham sizga salom va rahmatlar aytishdi. O'zlari ham sizga xat yozishmoqchi.

Ilhom akam yozgan xatlarida iyun oyidan buyon mazza qilib dam olishayotganlarini o'qib, havasim kelgandi. Xitoy o'quvchilari ta'tilga may oyining oxirida emas, iyun oyining oxiri, iyul oyining boshlarida chiqishadi. Boshlang'ich sinflarda ham o'ying oxirida imtihon topshiriladi. Bu yilgi imtihon natijalarimiz yomon bo'lmadi. Mening ham, singlim Oyzodaning ham yiqqan ballarimiz xitoylik bolalarinikidan kam bo'lmadi. Rosa harakat qilib, ikki yilda uch sinfni tamomlaganimizdan ham xabaringiz bor. Shunday qilib, bizni tabriklashingiz mumkin: ikkala nabirangiz ham beshinchi sinfga muvaffaqiyatli o'tdik. Hademay biz ham ta'tilga chiqamiz. 26-iyun kuni maktabimiz hovlisida «duxovoy» orkestrimiz chalib turgan marsh sadolari ostida har bir sinf o'z bayrog'imiz ostida oxirgi dushanba saflanishiga yig'ildik. Maktab rahbariyati jamoa hisobotini tingladi. Keyin yangi o'quv haftasining boshlanishi sharafiga maktabimiz bayrog'ini ko'tarishga buyruq berildi. Bayroqni ko'tarish baxtiga maktabimizning eng a'llochi va intizomli o'quvchilari muassar bo'lishadi. Saflanishimizni ko'z oldingizga keltirishingiz uchun



doskaga ireoglif yozayotganlarning eng bo'yi balandi - menman. Sinf jim-jit. Chunki o'tirganlar ham shu ish bilan band. Axir bu nazorat ish-da! Biz joy-joyimizga o'tirgach, laoshe ikkala qatorda yozilgan so'zlarni birma-bir tahlil qila

boshladi. O'n so'zning yettitasi to'g'ri yozilibdi. Ular yoniga laoshe «qushcha» belgisini qo'ydi. Bu - «to'g'ri» deganlari. Men joyimga o'tirishim bilanoq, doskadagi b i r



xatoyimni o'zim topdim. Ireoglifning chizig'i kam edi, laoshening ijozati to'g'rilab qo'ydim. O'qituvchimiz menga 97 ball qo'ydilar.

Ireogliflarda chiziqlarning ahamiyati katta. Bitta kichkina chiziq bilan so'zning ma'nosi butunlay o'zgarib ketadi. Masalan, «odam» so'zi ikkitagina (//) chiziqdan iborat. Lekin ikki bo'g'indan iborat «vaza» so'zi yigirma uchta chiziqcha bilan yoziladi. Yanglishmay ko'ring-chi! Lyu laoshening aytishicha, xitoy tilida oltmish

mingdan ortiq ireogliflar bor

ekan. Xitoy yozuvi eng murakkab

yozuvlardan hisoblanarkan. Biz uch yil ichida singlim

bilan bemalol muloqot qila oladigan, o'z darsliklarimizni bemalol

o'qiy oladigan darajada ireogliflarni o'zlashtirib oldik. Shundanmi,

muallimimiz singlim ikkimizni xitoy bolalariga ham o'rnatqilib ko'rsatyaptilar.

Faqat Oyzodaning husnixatini bo'shroq deb, ta'tilda ko'proq shug'ullanishni

tayinlayaptilar.

Xitoy maktablarida

intizom juda qattiq.

Biz ertalab soat

o'ndan kech soat

oltigacha maktabda

bo'lamiz. Olti-yetti

soat o'qiyimiz.

Bunday tartibga

toshkentlik

o'rtoqlarim «dod»

deyishsa kerak...

Avvaliga bizning

ham ko'nikishimiz qiyin bo'ldi. Mana, uch yilni o'tkazdik. Ta'tilda yaxshi kuch

yig'ib, kelasi yil boshlang'ich maktabni «a'lo»ga tugatishga harakat qilamiz.

Yaqinda boshlangan ta'tilimizni mazmunli o'tkazish uchun yaxshi reja tuzib oldik.

Unda Xitoyning boshqa shaharlariga sayohat ham, yodgorliklarni ziyorat qilish ham,

Xitoyning biz yashayotgan Shinchjon uyg'ur rayonining diqqatga sazovor joylarini

ko'rish ham belgilangan. Sayohatlarimiz haqida sizga albatta yozib turaman. Ta'til

paytida dadamlar uyda, oila a'zolari bilan ko'proq o'zbek va rus tillarida so'zlashishni

tayinladilar. Sizga xat yozishimiz esa bizga yaxshi mashq bo'ladi. Shunda kirill

imlosini ham unutmaymiz. Ta'tilning ilk

kunlaridanoq suzishga va tennisga qatnaymiz.

Dadamlar bizga yangi kompyuter olib berganlarini

telefonda aytgandim. Dasturi juda qiziqarli. Kunda

yangi-yangi xitoy so'zlarini o'rganamiz.

Hozirgacha o'rgangan ireogliflarimiz soni ikki

mingdan oshdi. Lyu muallima ta'tilga ham ancha

topshiriq berdilar.

To'rtinchi sinfni yaxshi tugatganimiz uchun

dadam va oyim bizni Urumchining eng chiroyli

istirohat bog'i «Qizil tog'»ga olib borishdi.

Mazza qildik. Yashasin ta'til! Yaqin orada

uchrashamiz. Sizga ko'pdan-ko'p salomlar bilan

nabirangiz Kamron.

Buvimga maktublar

YASHASIN TA'TIL!


Aziz bolajonlar!

Toshkentlik tengdoshingiz Kamronning Xitoy Xalq Respublikasidan buvisiga yuborgan maktublarini uch yilcha oldin ham o'qigan edingiz.

O'shanda Kamron buyuk Xitoy devori, Imperatorlar saroyi, buyuk mutafakkir Konfutsiyning yurti va uning ta'limoti haqida yozgan edi. Kamron xitoyshunos bo'lishni orzu qiladi. Orzusi tomon birinchi dadil qadam ham qo'yibdi. U hozir Xitoy Xalq Respublikasining Sinszyan muxtor rayoni poytaxti Urumchi shahrida xitoy tili maktabida o'qiyotgan ekan. Kamron maktublari orqali Xitoy mamlakati haqidagi hikoyalarni davom ettirmoqchi.

Quyida e'tiboringizga uning buvijonisiga yo'llagan navbatdagi maktubini havola qilamiz.


muallimdan ruxsat olib, Xitoyning O'zbekistondagi elchisi menga sovg'a qilgan apparat bilan suratga tushirdim. Sinflar saflari qatorida o'qituvchilar ham alohida bir sinfdek saf tortib turishibdi. Bayroq ko'tarilguncha Xitoy



Respublikasining gimnini aytib turdik. Maktab hovlisi jaranglab ketdi! Dushanba kuni saflanishlarimiz atigi bir necha daqiqa vaqtni oladi. Muallimimiz Lyu laoshe (o'qituvchi)ning aytishicha, bu tadbir o'quvchilarni birdamlikka, jamoani his qilishga o'rgatarkan. Tantanali yig'ilish tugaganidan so'ng, sinflar shoshmasdan saf tortib, o'z sinflarimizga kiramiz. Bunday tadbirdan keyin yo'laklarda bir-birimizni turtmaymiz, oyoqdan chalmaymiz, bir-birimizdan o'zishga harakat qilmaymiz. Sinflar bir-birini hurmat qiladi.

Sevimli fanim-xitoy tilini Lyu laoshe - Lyu muallima olib boradi. Sinfimizda 56 nafar bola o'qiydi. Dars davomida Lyu muallima hech bir o'quvchini bee'tibor qoldirmaydi. Har birimizdan nimanidir so'raydi, nimanidir o'qitadi, doskaga yozdiradi. Har gal Lyu muallima bergan savollarga javob berish istagida ko'p qo'llar yuqoriga ko'tariladi. Laoshe doskaga lotin transkripsiyasida ikki qator she'r yozib qo'ydi. Keyin bizdan shu so'zlarni xitoy ireograflariga ko'chirishni so'radi. Yana hammamiz doskaga chiqishni so'rab qo'l ko'tardik. Muallima besh bola qatorida meni ham doskaga chaqirdilar. Ular meni Ka-mi-lan deb chaqiradilar. Simga qo'ngan qaldirg'ochlardek doska oldida bir-birlarimizga siqilishib turganimizcha tepadagi yozuvlarga qaray-qaray xitoy ireograflarini yozib berdik.

Buvijon, suratda ko'rib turganingiz



URUMCHI shahri.

Bobom bizga ko'plab rivoyat, ertak va hayotiy voqealar so'zlab beradilar. Hozir sizlarga hikoya qilmoqchi bo'lgan masalimni ham bobomdan eshitganman.



NASIHATGO'Y QO'Y

Bir kishining bitta oti va bir dona qo'yi bor ekan. Kunlardan bir kuni oti og'ir betob bo'lib, o'rnidan turolmay qolibdi. Uy egasi qo'rqib ketib, darhol tabibni chaqirtiribdi. Jonivorni ko'zdan

kechirgan tabib uning egasiga bir dori berib:

– Bu dorini otingizga ichirasiz. Agar 3 kun ichida oyoqqa turmasa, demak, sog'aymaydi, so'yib yuborayering, - debdi. Bu gaplarga qo'y quloq solib turgan ekan, darrov borib otga yetkazibdi. Uy egasi otiga birinchi kun dorini ichirgandan so'ng qo'y uning yoniga borib nasihat qila boshlabdi:

– Og'ayni, turaqol, agar turmasang, seni so'yib tashlashadi.

Ot qanchalik turishga harakat qilmasin, uddasidan chiqolmabdi.

Ikkinchi kuni ham qo'y dorisini ichgan otni qanchalik qo'rqitmasin, hech qanday natija chiqmabdi. Uchinchi kuni uy egasi umidsizgina: «Agar bugun ham oyoqqa turmasa, so'yib yuboraman», deb dorini ichiribdi. Qo'y yana kelib otni qistayveribdi:

– Hoy, gapini eshitingmi? Bugun oxirgi kuning, turmasang o'lasan, qazi bo'lasan...

Qo'yning gaplari joniga tekkanidanmi yoxud dorining ta'siridanmi, xullas, ot sapchib o'rnidan turib ketibdi. Otidan umidini uzib, so'yish uchun pichoq ko'tarib kirgan uy egasi ne ko'z bilan ko'rsinki, u sog'ayibdi. Bag'oyat quvonib ketganidan haligi nasihatgo'y qo'yni qurbonlik qilib, so'yib yuboribdi.

Qissadan hissa shuki, qo'y o'ta sergap, mahmadona, nasihatgo'yiligi bois o'z boshiga o'zi yetibdi.

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
29 - maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.

Qadimda bir kambag'alning Shirin va Shakar ismli o'g'il-qizi bo'lgan ekan. Bir-birlariga juda mehribon bo'lgan aka-singillar kun sayin emas, soat sayin ulg'aya borishibdi. Shirin go'zallig-u aql-farosatda tengi yo'q lo'bar qiz bo'lib, Shakar esa ko'rkam, mard va o'ktam yigit bo'lib kamol topishibdi.

Bir kuni bu oila boshiga og'ir musibat tushibdi: Shirinni yovuz dev olib qochibdi. Akasi uni albatta qidirib kelishini bilgan qiz jimjiloq barmog'ini kesibdi-da, qonini devga sezdirmay yo'lga oqizib kelaveribdi. Devning makoniga yetib kelishi bilan ko'p qon yo'qotgani uchun holsizlanib yotib qolibdi.

Endi gapni Shakardan eshitaylik. U qanday qilib bo'lmasin singlimni yovuz devning changalidan qutqaraman, deya yo'lga tushibdi.



SHIRIN VA SHAKAR



O'rmon oralab o'tadigan ilonizi yo'lkada qon tomchilariga ko'zi tushib, bu dono singlimning menga ko'rsatgan ishorasi bo'lsa kerak, deya uni qoralab ketaveribdi. Bir necha kun deganda devning makonini topib boribdi.

Qilichini yalang'ochlab, yovuz devni jangga chorlabdi. U harqancha harakat qilmasin, devni yenga olmabdi. Yigitning qo'llariga kishan solgan dev: «Singlimni sening qoning evaziga qo'yib yuboraman» deya shart qo'yibdi. Yigit o'ylab ham o'tirmay rozi bo'libdi. Shart qo'yish navbati qizga kelibdi. «Men akangni bandi qilib oldim. Agar menga turmushga qoladi», debdi Shiringa. Devga turmushga chiqqandan

chiqsang, u tirik

ko'ra, o'limni afzal ko'rayotgan qiz akasini qutqarish uchun bu shartga ko'nibdi...

Shunda nima bo'libdi deng, haligi vajohatli dev odamga aylanibdi. Aylanganda ham uncha-muncha odamga emas, shu yurtning podshosiga aylanibdi. U bir sehriga yordamida devga aylanib olib, o'g'il-qiziga munosib umr yo'ldosh axtarib yurgan ekan. Podshoning mol-dunyosi, amaliga uchib, quchoq-quchoq sovg'a-salomlar bilan kelayotgan sovcilarning hech biri ko'ngliga o'tirmayotgan ekan-da.

Podsho sinovdan yaxshi o'tgan aka-singillarni kambag'al oila farzandi bo'lshlariga qaramay, Shirinni o'g'liga kelin qilibdi, Shakarga esa qizini beribdi.

Qirg' kecha-yu qirg' kunduz yurtga to'y berib, murod-u maqsadiga yetibdi.

Qissadan hissa shuki, insonning qimmatini uning boyligi, mavqei bilan o'lchanmas ekan.

Shoira MURODOVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumani.



SIRLI SANDIQ OCHILDI

Qadim zamonda bir solchi yashab o'tgan ekan. U hech kimdan yordamini ayamas, xizmati uchun haq berishsa olar, berishmasa, indamay ketaverarkan.

Bir kuni katta bir ilon daryodan suzib o'tmoqchi bo'libdi-yu, biroz suzgach, cho'ka boshlabdi. Buni ko'rgan solchi darhol yordamga oshiqibdi. Ilonni qutqarib, daryoning narigi qirg'og'iga o'tkazib qo'yibdi.

Oradan oylar o'tibdi. Yana bir kuni odamlarga beminnat xizmat qilavotgan solchining ko'zi cho'kayotgan yosh bug'uga tushibdi va uni ham qutqarib, qirg'oqqa chiqarib qo'yibdi.

Kuz oylarining oxirgi kunlari ekan. Keksa solchi qishlov uchun o'tin yig'ish maqsadida o'rmonga boribdi. Shu payt yoniga bir yosh bug'u kelib, tuyoqlari bilan yerni qaziy boshlabdi. Shu tobda belkurak ko'targan bir yo'lovchi paydo bo'lib, bug'uni hurkitib yuboribdi. Keksa solchi yo'lovchiga:

– Baraka topgur, mana shu yerni kavlab bergin, - deb iltimos qilibdi. Yo'lovchi solchi ko'rsatgan yerga bir-ikki belkurak urgan ekan, belkuragining uchi qattiq bir narsaga tegibdi. U yana biroz kavlagan ekan, haligi joydan oltin chiqibdi.

– Katta rahmat senga, - debdi solchi. – Xizmatim uchun senga oltinning yarmini beraman.

– E-e, yo'q, - debdi yo'lovchi, - bu oltinlarni men qazib oldim. Shuning uchun ularning bari meniki bo'ladi.

Ular o'zaro bahslashib qolishibdi, lekin bahslari ajrim bo'lmagach, shaharga, qozining oldiga borishga qaror qilishibdi. Qozi masalani yo'lovchining foydasiga hal qilib, solchini ta'magirlikda ayblabdi. Avval kaltaklatibdi, so'ng, bandi qilib, zindonga tashlashlarini buyuribdi. Tunda kekse solchining oyog'ini bir zaharli ilon chaqib olibdi. Ertasi kuni oyog'i chunonam shishib ketganidan u hayotdan



SOLCHI

umidini ham uzib qo'yibdi. Biroq, kechga yaqin boshqa bir ilon kelib, unga shifobaxsh barglar tashlab ketibdi. Solchi bir paytlar o'zi qutqargan ilonni tanibdi. U bergan barglardan birini ilon chaqqan yeriga qo'ygan ekan, shish yo'qolib, og'riq ham qolibdi.

Haligi ilon o'sha kuni kechasi qozining uyiga borib, rafiqasini chaqibdi. Bu paytda zindon boshlig'i solchi bilan suhbatlashib o'tirgan, solchi unga boshidan o'tganlarini birma-bir so'zlab berayotgan ekan. Ertasi kuni zindon boshlig'i qozining rafiqasi bilan ro'y bergan voqeani eshitib, solchi haqida qoziga gapirib beribdi. Qozi darhol uni huzuriga chaqirtirib:

– Oyog'ingni shishi nimadan yo'qoldi? - deb so'rabdi.

– Bir ilon menga shifobaxsh barglar keltirib bergandi, - debdi solchi.

– Qani o'sha barglar?

Solchi barglarni qoziga beribdi. Ulardan birini xotining oyog'iga qo'ygan can, shish bir zumda yo'qolibdi. Shunda qozi undan so'rabdi:

– Ilonning senga barglar keltirib berishida ne sir bor?

Solchi ilon bilan yosh bug'uni o'limdan qutqarganini hikoya qilib beribdi.

– Yosh bug'u senga nima berdi? - so'rabdi qozi.

– Siz yo'lovchiga berib yuborgan oltinlarning yotgan joyini ko'rsatgandi, javob qilibdi solchi. Qozi darhol yo'lovchini tutib keltirishni buyuribdi. Undan oltinlarni qaytarib olib, kekse solchiga beribdi. Yo'lovchini esa g'irromchiligi uchun aybdor deb hukm chiqarib, zindonband etibdi.

Qissadan hissa shuki, to'g'riso'z kishi albatta murodiga yetadi!

Shahnoza MASHRABBOYEVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi
13 - maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi.

SARIQ MASHAK



–Opoqing nega seni sariq mashak deydi? Sen oppoqqinasan-ku!

–Men emas, o'zlari sariq mashak.

–Ha... opoqimni sariq desa bo'ladi. Ko'zi ham ko'k. Sochlari bir kun sariq, ikki kun qora... Odamning rangini bir paytlar sochiga qarab bilardik. Endi, bo'yoq bor, ishonch ham qolmadi. Lekin, ko'zlar aldamaydi. Ko'zlarni

bo'yab bo'lmaydi...

Buvim yana jim keta boshladilar. Men zerikdim.

–Buvi, so'rang...

–Nimani?

–Opoqimni.

–Ha-ya, opoqingni sen sariq mashak dedingmi?

O'zi qayoqdan lug'atingga bu so'z kelib qoldi?

–Amakim o'rgatdilar. Agar yong'oqning tagida uxlab qolsam yoki bitta o'zim tush paytida

uxlamay ko'chalarda yursam, sariq mashak ajina chalib ketarkan.

O'shanda «Kimga o'xshaydi

ajina?» degandim, «Aji-

naning sochi sariq,

tirnog'i qizil bo'ladi»,

dedilar. Opoqim ham

bor edilar. Birdan:

«Opoqimning sochiga

o'xshaganmi?»,

dedim. Opoqim:

«Endi men ajina

bo'ldimmi senga?»,

deb oyog'imni uzun

tirnoqlari bilan

chimchilab oldilar.

–Ha, - dedim. -

Tirnog'ingiz ham

qip-qizil...

Shu kuni amakim

meni berkitib

olmaganlarida,

opoqim rostdan ham

meni battar qiynab

qo'yardilar.

–Opoqing seni

yaxshi ko'radi-ku.

Abrorni ham adasi, ham onasi bo'lib o'stiriyapti.

Opoqing sabab, hamma bolalari tarbiyali.

–Qayoqda! Abror ajinadan qo'rqadi-ku!

–Qanaqa ajinadan?

–Sochini har xil rangga bo'yagan ajinadan.

–Onasidan-mi?

Men indamay turaverdim. Buvim o'zlari aytgan

gapni albatta esladilar.

–Ha, senga, mulla buvang nokning tagida sochini

tarab o'tirgan ikkita ajinani ko'rganlarini aytuvdim.

O'shani eslatyapsanmi?

–Yana aytib bering.

–Bunaqa bahor kunlarida unaqa gaplarni aytish

uncha qiziqarlimas. Senga quyoshli jazirama


kunlarda aytib beraman. Hademay hamma uzumlarni

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

pishitadigan, qovun-tarvuzlarga maza kiritadigan oftob qizdiradi. O'shanda yana yangilarini aytaman.

Buvim yana yangilarini aytgularicha, men sizga eskilarini aytib beraman. Buvimdan eshitganlarimni Abrorga aytib berib eskitgandim-da. Sizga esa eskimas, yap-yangi...

SIZ QO'RQASIZMI?



Bir bola uzun yo'ldan bir o'zi o't yulib, velosipediga ortib kelayotgan ekan. Oldidan tobut chiqib qolibdi. Abrorga shuni aytсам, indamay qarab turaverdi.

–Oppoq tobut emish...

U yana ji-im turdi.

–Ichida sham yonib turganmish.

–Nima bo'пти? Va-a, shunga ham qo'rqamanmi?

Men rosa qo'rqandim. Nimagaligini bilmadim-u, hamma uyning chirog'ini yoqib qo'ying, deb har kuni kechasi oyim bilan dadamni tindirmagandim. Siz-chi? Siz qo'rqasizmi?

UCHAR ILON



O'sha bola qo'liga cho'p olib, yo'lini ochib o'tib ketibdi. «Qo'rqmayman, qo'rqmayman, men zo'o'rman», deb gapirib ketayotsa... Shundoq yonida

velosipedi bilan barobar bitta ilon uchi-ib ketayotganmish.

–Nima-a? Ilon ham ucharkanmi?

–Ucharkan.

–Bundan o'sha bolaning o'zi ham uchib qolibdimi?

Abror yana meni masxara qilib kulib yubordi. Men esa uni yana qo'rqita olmadim. Siz-chi? Siz qo'rqasizmi?

YO'YGA MARHAMAT!

O'sha bola yana o'sha yo'lda bir o'zi ketayotsa, bitta hovlida to'y bo'layotganmish. Bu yo'lda uylar yo'q edi-ku! Ikki taraf yong'oqzor. Uning orqasida piyoz va pomidor ekilgan keng dala. Bola hayron bo'lib qarab tursa, chiroyli kiyingan odamlar unga, «uyga kiring, to'yga kiring», deb turganmish.

–Kiribdimi? - Abror mendan hovliqib so'raydi.

–Rosa nisholdaga to'ygandir? Men nisholdani yaxshi ko'raman.

–Men ham.

–Yaqinda ro'za bo'ladi. Har kuni iftorlikka nisholda yeymiz.

Men Abrorni qo'rqitaman desam, u nisholda yeymiz deb o'tiribdi. Siz-chi? Sizga qiziqarli



mening aytayotganlarim? «Ha» desangiz, aytaman...

Shu payt Abror meni turtib qoldi.

–Aytmaysanmi to'yda nima bo'lganini?

–Nima bo'lardi? Bola to'yga kiribdi. Oldiga shirin kulchalar qo'yishibdi. Konfet, tortlar rosa ko'p emish. Negadir hamma chiroyli kiyinganlar uni o'rab olib, «Bir so'z aytmay, oling bulardan», deb turishganmish. Nima so'z ham aytardi bu bola? Albatta «Bismilloh» deydi-da!

–Debdimi?

–Debdi. Keyin o'zidan ketib qolibdi. Uni uyidagilar zo'rg'a qidirib topishibdi. Tezak, go'nglarni quchoqlab, o'sha jin ko'chadagi jin topmas o'rada yotgan emish. Keyin oyoq-qo'li ishlaymay qolibdi.

–Bor-ey! Shuyam gap bo'ldi-yu!

–Gap bo'ldi! Rosa ko'p gap bo'ldi. Buvim shunday dedilar.

–Bu bilan nima demoqchisan?

–Bolalar sa-al qo'rqoqroq bo'lishi kerak. Bitta o'zi yurmasin. Har xil joylarga boravermasin.

–Ajab bo'пти. Sen shunaqa bo'laqol.

–Xuddi shunaqa bo'laman. Sendaqamas. Sen-ku, tomingni yoqib yuborgan...

Abror «jim bo'li!» deb og'zimni yopdi.

(Davomi bor).

YOZILMAGAN KITOR



Umida ABDUAZIMOVA.

Aziz bolajonlar, ayni kunlarda yurtimiz uzra bayram, shodiyonalar shukuhi kezib yurganini siz ham murg'akkina qalbingiz bilan his qilayotgandirsiz?!

Ha, yana ikki haftadan so'ng eng ulug' va suyukli bayramimiz - yurtimiz mustaqilligining 15 yilligini keng tantana qilamiz. O'zini shu yurt farzandi deb bilgan har bir inson qalbi bugun faxr va iftixor tuyg'ulariga limmo-lim.

Shunday kunlarda o'zbek onalari timsolini zo'r mahorat bilan yaratayotgan, tom ma'noda O'zbekistonimiz onasi bo'lmish sevimli san'atkorimiz, O'zbekiston xalq artisti Rixsi opa Ibrohimova bilan hamsuhbat bo'ldik, Vatan, istiqlol haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdik:

-Dunyoda ikki narsani - ona bilan Vatanni tanlab bo'lmaydi. Bir tarafga biri-biridan go'zal, shohona liboslar kiygan, oltin-u javohirlarga burkangan onalarni terib qo'yishsa, ikkinchi tarafga esa munis-u mushfiq, kamtar-u kamsuqum onangizni qo'yib, sizga tanlash imkonini berishsa, qay birini tanlagan bo'lar-dingiz? Ishonchim komilki, albatta o'z onangizni tanlaringiz, shunday emasmi? Vatan ham xuddi

shunday. O'zini haqiqiy vatanparvarman deb bilgan inson yurti boy bo'ladimi, kambag'al bo'ladimi, qanday bo'lsa, shundayligicha, yaxshi-yomon odamlari-yu, quvonchli hamda qayg'uli kunlari bilan qo'shib birdek sevishi kerak.

Zero, shoir yozganidek:

*Olov ichra bo'lsa ham tandir,
Non uchun u Vatandir.*

Yoki sevimli, marhum shoirimiz Muhammad Yusufning quyidagi misralarini yodga olaylik:

*Gohi ipak, gohi yaktak bo'zingdan-ey,
O'zingdan qo'ymasin xalqim, o'zingdan...*

Naqadar yurakka yaqin, ta'sirli misralar-a? «Men vatanparvarman, yurtimni sevaman», deya ko'krakka urmayapti. Soddagina, ravon, hammaga tushunarli bo'lgan misralari orqali Vatanga bo'lgan mehrini bayon qilyapti.

Biz qay bir kasb egasi bo'lmaylik, ma'rifatchimi, sportchimi, uchuvchi-yu quruvchimi, shu yurtning zalvorli yukini yelkaga

Istiqlolim - istiqbolim oldikmi, uning ravnaqi uchun hech bo'lmaganda bittagina g'isht qo'yimg'imiz lozim.

Yurtni yurt emas, insonlari boy qiladi, dovrug'ini dunyoga taratadi. Biror-bir chet davlatga chiqib, men O'zbekistondanman desangiz, dunyoda shunday joy ham bormi, deydiganlar topilishi mumkin. Lekin, men Amir Temur yoki al-Buxoriy, At-Termiziy, al-Xorazmiy yurtidanman desangiz, sizni tanibgina qolmay, shunday pir-u komillar yurtidanmisiz, deya havas bilan boqishlari tayin.

Demak, nomlari ham bizga obro', hurmat va ehtirom keltirayotgan ajdodlarimizga munosib yashashimiz, farzandlarimizni ham xuddi shu ruhda tarbiya-

lashimiz lozim. So'zdagina emas, amalda, o'zimiz shaxsiy namuna bo'lib o'rgatishimiz lozim.

qizil gaplardek bo'lib Eshitgan quloqqa xuddi mening yuragimdan tuyular, lekin bu fikrlar otilib chiqayotganini dan bo'lsa kerak, latib ochib, isrof ganlarga yoki

lardagi, u trolleybus-xato yozilgan ko'zim tushsa ham, jahlim chiqib ketaveradi. Nazarimda, tilimizga, demakki, xalqimizga behurmatlik qilinayot-

gandek tuyulaveradi.

Men O'zbekistonday jannatmakon yurt farzandi ekanligimdan faxrlanaman. Shu yurt tuprog'ida tug'ilib, noni, tuzini yeb ulg'aygan-u, ammo o'zga koshona yurtlarni qo'rsab qolgan insonlarni yurt farzandi demayman.

Bunday deyishimning boisi bor, albatta. Yaqinda uzoq muddat chet elda ishlab kelgan bir kishining, ota-onamning qabrlaridan xabardor bo'lib turing, deya qarindoshlariga «dollar» tashlab ketganini eshitdim. Ota-onasi qabrini ziyorat qilishga fursat topa olmagan, hatto o'z tilini ham unutayozgan bunday kishilarni ham yurt deb atay olamizmi, axir?! Bizning xalqimizgagina xos bo'lgan odamiylik, insoniylik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, o'zgalar g'amiga sherik bo'lishlik kabi xislat-u fazilatlar yana qay bir yurtda bor?!

Boshqalarni bilmadim-u, lekin men o'zga yurtning podshosi bo'lgandan ko'ra, o'z yurtimning gadosi bo'lib yashashni afzal bilaman.

Boshqalarni bilmadim-u, lekin men o'zga yurtning podshosi bo'lgandan ko'ra, o'z yurtimning gadosi bo'lib yashashni afzal bilaman.

O'Z YURTIMNING SHAYDOSI BO'LAY...



«O'NTA NEGR BOLASI» SALATI

Kerakli masalliqalar: 10 dona mayda baqlajon, 10 dona qizil va ko'k bulg'or qalampiri, 10 piyoz, 1-



dona pomidor, 10 dona mayda 1,5 bosh sarimsoq piyoz, 1 st. o'simlik yog'i, 1 bog'lam ukrop va kashnich, 1 choy qoshiqdan tuz, shakar, sirka.

Tayyorlanishi: Hamma masalliqalarni tozalab, tayyorlab olamiz. Baqlajonni i k k i g a , q a l a m p i r , p o m i d o r ,

piyozni to'rt bo'lakka bo'lib olamiz. Sarimsoq piyozni 2-3 bo'lakka bo'lib, ukrop va kashnichlar mayda to'g'raladi. O'simlik yog'iga tuz, shakar, sirka qo'shib yaxshilab aralastiriladi. Qozonga solib, past olovda qizdiriladi. Qizigach, avval piyozni solib, 2-3 daqiqa qovurib olinadi va qolgan masalliqalar ketma-ket solinib, qozon qopqog'i yopiladi va 30-35 daqiqaga dimlab qo'yiladi. Qozonni ochgach, yana bir marta yaxshilab aralastiriladi. Sovugach, muzlatgichga qo'yib, iste'mol qilinadi. Bu salatni qishda iste'mol qilish uchun bankalarga yopsa ham bo'ladi.

Ochil dasturxon

OLMALI TORT

Kerakli masalliqalar:

4ta tuxum, 2 st. shakar, 200 gr. margarin, 0,5 choy qoshiqda iste'mol sodasi, 9-10tacha olma, bir chimdim vanilin, un.

Tayyorlanishi:

Tuxum bilan shakar ko'pirtirilib, 0,5 choy qoshiqda iste'mol sodasi, ozgina eritilgan margarin va un solib, suyuqroq xamir qoriladi. Olmalarni qirg'ichdan o'tkazib, shakar qo'shiladi. Qolipni yog'lab, non-tolqon sepilib, bir qism xamirni olib qolib, qolganini qoshiq yordamida qolipga solinadi. Ustiga parrak qilib to'g'ralgan olmalar teriladi. Qolgan xamirga ozgina un qo'shib (quyuq xamir hosil bo'lsin), 1-1,5 sm. qalinlikda yoyiladi. Xamirdan tasmalar kesib, tort sirtini bezatiladi. Eng ustiga ko'pirtirilgan tuxum oqini surtib, gaz pechiga 30-35 daqiqaga qo'yiladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi.



TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,

2 bosma taboq.

Adadi - 17626

Buyurtma N: J 2702

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Musahhah:

Nargiza

ABDULLAYEVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./faks:

(99871) 144-24-45